

20-Fevral, 2026-yil

**O‘RTA BO‘G‘IN RAHBARLARIDA YETAKCHILIK SIFATLARINING
IJTIMOIY OMILLARGA BOG‘LIQLIGI**

Qo‘chqarov Jasurbek O‘ktamboy o‘g‘li

Geologiya fanlari universiteti Talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektori mudiri.

Tel: +9989933627161

Annotatsiya: *maqolada yetakchilikning shaxsiy sifatlar nazariyasiga ko‘ra, eng yaxshi yetakchilar barcha uchun umumiy bo‘lgan muayyan shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Ushbu g‘oyani rivojlantirib aytish mumkinki, agar bu sifatlarni aniqlash mumkin bo‘lsa, insonlar ularni o‘zida rivojlantirib, samarali yetakchiga aylanishlari mumkin. Bunday o‘zlashtiriladigan sifatlar qatoriga aql-zakovat va bilim, jozibali tashqi ko‘rinish, halollik, sog‘lom fikrlash, tashabbuskorlik, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar hamda yuqori darajadagi o‘ziga ishonch kiradi.*

Kalit so‘zlar: *yetakchi, o‘rta bo‘g‘in menejeri, jamiyat, boshqaruv faoliyati, yondashuv, usul, vosita, harakat.*

**СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ
РУКОВОДИТЕЛЕЙ СРЕДНЕГО ЗВЕНА.**

Кучкаров Джасурбек Уктамбой угли

*Руководитель сектора координации работы со студентами Университета
геологических наук.*

Тел.: +9989933627161

Аннотация: *в статье подчеркивается, что согласно теории личностных качеств лидерства, лучшие лидеры должны обладать определёнными личностными качествами, общими для всех. Развивая эту идею, можно сказать, что если эти качества можно определить, люди могут научиться развивать их в себе и тем самым становиться эффективными лидерами. К таким приобретаемым качествам относятся интеллект и знания, привлекательный внешний вид, честность, здравый смысл, инициативность, социально-экономические знания, а также высокий уровень уверенности в себе.*

Ключевые слова: *лидер, менеджер среднего звена, общество, управленческая деятельность, подход, метод, средство, действие.*

**THE DEPENDENCE OF LEADERSHIP QUALITIES IN MIDDLE
MANAGERS ON SOCIAL FACTORS**

Kuchkarov Jasurbek

Abstract: *the article argues that, according to the personality theory of leadership, the best leaders should have certain personal qualities that are common to all. Developing this idea, it can be said that if these qualities can be identified, people can learn to develop them in themselves and thus become effective leaders. Some of these learned characteristics are described as intelligence and knowledge, impressive appearance, honesty, common sense, initiative, social and economic knowledge, and a high level of self-confidence.*

Keywords: *leader, leader, middle manager, society, management activity, approach, method, tool, action.*

KIRISH

Bugungi kunda gender rollar oilaviy hayotning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Gender — biologik jins bilan bir qatorda, ijtimoiy, madaniy va psixologik xususiyatlarni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston jamiyatida an’anaviy oilaviy tuzilma hali ham kuchli bo‘lib, bunda erkak va ayol rollari qat’iy belgilangan. Biroq globalizatsiya, urbanizatsiya, ta’lim darajasi va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar tufayli gender rollar ham o‘zgarish jarayonidan o‘tmoqda.

Jamiyatshunoslar fikricha, gender rollar oilada farzand tarbiyasi, uy-maishiy vazifalar, moddiy ta’minot va qaror qabul qilish jarayonlarida aniq belgilanadi. Traditsional modelga ko‘ra, erkak — aynan oilaning moddiy ta’minotchisi, uy tashqarisidagi faoliyat, qarorlar sohibi sifatida ko‘riladi. Ayol esa uy ichidagi tartib-intizom, farzandlar tarbiyasi va uy-joy ishlarini boshqaruvchi sifatida qabul qilinadi. Bunday model bir paytlar oilada aniq strukturaviy tartibni saqlashga xizmat qilgan bo‘lsa-da, hozirgi ijtimoiy sharoitda u ba’zan stress, ro‘y bermagan kutilmalar va psixologik nizolar manbai ham bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Psixologlar ta’kidlaganidek, oilaviy munosabatlarda psixologik moslashuv — bu hayotiy stresslar, ro‘l kutishlari, vazifalar bo‘linishi va shaxsiy ehtiyojlar orasidagi muvozanatni topish jarayonidir. Erkin va hamkorlikka asoslangan gender munosabatlar oilada yaxshiroq moslashuvga olib keladi. Bu yerda “gender adolati” kontseptsiyasi asosiy rol o‘ynaydi: ya’ni oila a’zolari bir-birining tashqi va ichki ehtiyojlarini anglab, hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari muhim. Global psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy gender rollarga qattiq amal qilish psixologik stressni kuchaytiradi — masalan, erkakning “hamma yukni o‘z zimmasiga olishi” zarurati bilan ayolning “faqat uy va bolalar bilan shug‘ullanishi kerak” degan qat’iy kutuvlari oilaviy noroziliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Buning oqibatida er-xotin orasida muloqot yo‘qolishi, hissiy chekinish, bosim sezish holatlari yuzaga keladi. Boshqa olimlar esa gender rollarni qayta moslashtirish oilada ijobiy o‘zgarishlarni ham keltirib chiqarishini ta’kidlaydi. Masalan, erkaklar farzand tarbiyasida faol ishtirok etadigan oilalarda bola psixikasining barqarorligi yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Shuningdek, er-xotinlar bir-birining professional faoliyatiga ham

20-Fevral, 2026-yil

hamdardlik bilan yondashsa, kelishmovchiliklar kamayadi va oilaviy mamnuniyat ortadi. Gender rollarning psixologik moslashuv jarayoniga ta'siri shuningdek, jamiyatning umumiy qadriyatlari va iqtisodiy sharoitlar bilan uzviy bog'liq. Yangi iqtisodiy imkoniyatlar ayollarga mustaqil faoliyat yuritish imkonini oshiradi, bu esa oilada rollarning qayta taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Bunday o'zgarishlar oilaviy hayotda hamkorlik va ochiqlikni rag'batlantiradi. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, unda insonning ma'naviy qiyofasi, axloqiy qarashlari va hayotiy qadriyatlari shakllanadi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, oiladagi sog'lom muhit hamda o'zaro hurmat jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi. Islom manbalarida ham oila masalasi alohida e'tibor markazida bo'lib, uning pokligi, mustahkamligi va tarbiyaviy ahamiyati keng yoritilgan. Hadislarda ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi, er-xotin o'rtasidagi mehr-oqibat masalalari muhim fazilat sifatida ta'kidlanadi. Islom ta'limotida er-xotin munosabatlarini mustahkamlash maqsadida aniq me'yor va qoidalar belgilangan. Oilaning ikki asosiy tayanchi bo'lgan erkak va ayolning har biriga ma'lum burch va mas'uliyat yuklatilgan, shu bilan birga ularning o'zaro haq-huquqlari ham ko'rsatib berilgan. Bu tartib oilaviy hayotda adolat va muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Islom ayollarning ilm olish, mehnat qilish, merosdan ulush olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqlarini e'tirof etadi. "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" degan hadis ham buning dalilidir.

Nikoh, meros va oilaviy masalalarda ayol manfaatining himoya qilinishi alohida ko'zda tutilgan. Nikohning majburiy shartlaridan biri bo'lgan mahr ayolning moddiy va ma'naviy huquqlarini kafolatlashga qaratilgan. Nikohsiz yashashning man etilishi ham jamiyatda ayol sha'ni va qadr-qimmatini asrashga xizmat qiladi. Bu jihatlar muqaddas dinimizda ayolning naqadar e'zozlanganini ko'rsatadi. Ayolga hurmat ko'rsatilgan jamiyatda taraqqiyot va farovonlik mustahkam qaror topadi. Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayolini qadrlagan, onani ulug'lagan oilalarda ma'naviy muhit sog'lom bo'ladi. "Buyuk insonni buyuk ona tarbiyalaydi" degan hikmat bejiz aytilmagan. Farzandning komil inson bo'lib voyaga yetishi, avvalo, oiladagi muhitga bog'liq. Onaga hurmat bo'lgan xonadonda farzand ham odobli, mas'uliyatli va mehribon bo'lib ulg'ayadi. Aksincha, bolalikdan ayolga nisbatan bepisandlikni ko'rib o'sgan farzand kelajakda o'z oilasini mustahkam saqlashda qiynalishi mumkin. Oilada ma'naviy-axloqiy barqarorlikni ta'minlash va gender tenglikni qaror toptirish erkak va ayolning hamkorligiga bog'liq. Har ikki tomon jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga amal qilishi, o'z zimmasidagi vazifalarni adolat va mas'uliyat bilan bajarishi zarur. Oila boshlig'i bo'lish nafaqat moddiy ta'minot, balki ma'naviy yetakchilikni ham anglatadi. Er va xotin o'zaro hurmat va tushunish asosida oilaviy masalalarni birgalikda hal etishga intilsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar tinch yo'l bilan bartaraf etiladi. Zero, ota-ona yosh avlod uchun eng katta ibrat maktabidir. Ularning o'zaro munosabati farzandlarning kelajakdagi oilaviy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

NATIJALAR

Gender tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida — siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim va fan sohalarida erkaklar va ayollar o'rtasidagi

20-Fevral, 2026-yil

munosabatlarning ijtimoiy jihatlarini anglatadi. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatini emas, balki har ikki jins vakillariga o‘z orzu-maqсадlariga erishish va hayot sifatini yaxshilash uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Rivojlangan jamiyatning muhim talablaridan biri — erkaklar va ayollar uchun teng huquqlarni ta‘minlashdir. O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib ayollar huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 1995 yilda O‘zbekiston Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Konvensiyani (CEDAW) ratifikatsiya qilgan.

Yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda gender tengligi masalasi chuqur isloh qilinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta‘minlashga qaratilgan bir qator qonunlarni imzoladi. Darhaqiqat, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror rivojlanish jarayonini jadallashtiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. 2000 yilda BMT tomonidan gender tengligi inson faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e‘tirof etilgach, bu yo‘nalishda ijobiy siljishlarga erishildi. So‘nggi besh yil davomida O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi mavqeini mustahkamlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2019 yil sentabr oyida “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, huquqiy baza yanada takomillashtirildi. Qonunlardan tashqari, hukumat huzurida “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi” va Oila ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil etildi. Ushbu markazlar ayollarning mehnat huquqlarini himoya qilish, oilaviy zo‘ravonlik qurbonlariga yordam ko‘rsatish, ularni reabilitatsiya va moslashtirish, shuningdek, suitsidlarning oldini olish bilan shug‘ullanadi. Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadi — “Gender tengligini ta‘minlash va barcha ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” doirasida to‘qqizta vazifa ishlab chiqildi. 2020-yil oktabr oyida “Gender tengligi faoli” milliy tanlovi e‘lon qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ayollarga nisbatan gender kamsitishining oldini olish maqsadida Gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu yangi institutsional mexanizmlar O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligini ta‘minlash va ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish bo‘yicha yagona kompleks tizimni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonun ko‘p yillik muhokamalardan so‘ng qabul qilingan. Gender siyosati samaradorligini monitoring va baholash tizimida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, www.gender.stat.uz saytida qo‘shimcha gender ko‘rsatkichlari joriy etildi. Bundan tashqari, ayollarni ta‘lim va ilm-fanga jalb etish, ayniqsa, tabiiy va texnik fanlarga qiziqishini oshirish maqsadida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) laboratoriyalarini tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida ayollarning bandligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada Taraqqiyot strategiyasi markazi hamda boshqa jamoat tashkilotlari bilan faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 2019 yil iyun

20-Fevral, 2026-yil

oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatidagi nutqida shunday degan edi: “Meni xalqimiz ongida shakllangan bir stereotip juda tashvishga soladi. Odatda biz ayolni, avvalo, ona, oila qo‘rg‘onining saqlovchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, albatta, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning oddiy kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lishi kerak”. Mazkur Senat yig‘ilishida mamlakat tarixida ilk bor ayol — Tanzila Norboyeva Senat raisi etib saylandi. U ilgari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari va Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimlarida faoliyat yuritgan. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizning bir qator hududlarida ayol hokimlar faoliyat olib bormoqda.

MUHOKAMA

2020-yil 20-yanvarda Senatning birinchi yalpi majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyev tuman hokimi lavozimlariga ayollar nomzodini ko‘rib chiqish va ularni amaliyotda sinab ko‘rish zarurligini ta’kidladi. Davlat rahbari ayollarning masalalarga chuqur yondashuvi, fidoyiligi, mas’uliyat hissi va mehnatsevarligi bilan boshqalarga ibrat bo‘la olishini qayd etdi. Davlat va jamiyat boshqaruvida amalga oshirilayotgan bu kabi o‘zgarishlar gender tengligini ta’minlashga bo‘lgan qat’iy intilishning amaliy ifodasidir. Mamlakatda gender tengligini mustahkamlash va ayollarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonunlarning qabul qilinishi esa bu yo‘ldagi muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda. Ko‘pgina olimlar oilaviy terapiya va konsultatsiyalar orqali gender rollarni moslashtirish samaradorligini ta’kidlashadi. Oilaviy mutaxassislar er-xotinning o‘zaro kutishlarini aniqlash, kommunikatsiya malakalarini oshirish va kuchli tomonlarni yo‘lga qo‘yish orqali psixologik moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bu yondashuv stressni kamaytirish, oilaviy baxt va farovonlikni oshirish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gender rollar bugungi O‘zbekiston oilasida jismoniy emas, balki psixologik moslashuv uchun muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy qadriyatlar hamda zamon bilan uyg‘unlashgan yondashuvlar ham bo‘lsa, oilaviy hayot barqarorligi va a’zolarining ruhiy salomatligi ortadi. Gender rollarni qayta ko‘rib chiqish va moslashtirish jarayoni oilaning mustahkamligi, ya’ni oila a’zolarining bir-birini tushunishi va qadrlashi bilan chambarchas bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2010.
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T.: Universitet, 2002.
3. Shoumarov G‘.B. Oila va nikoh psixologiyasi. – T.: Sharq, 2008.
4. Bem S.L. Gender Schema Theory and Its Implications. – Psychological Review, 1981.
5. Eagly A.H. Sex Differences in Social Behavior: A Social-Role Interpretation. – Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1987.

20-Fevral, 2026-yil

6. Parsons T., Bales R.F. Family, Socialization and Interaction Process. – Glencoe: Free Press, 1955.
7. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
8. Connell R.W. Gender and Power. – Stanford University Press, 1987.
9. Minuchin S. Families and Family Therapy. – Harvard University Press, 1974.
10. Satir V. Conjoint Family Therapy. – Palo Alto: Science and Behavior Books, 1964.

